# Toshkent viloyatida oliy ta'lim

*2024/2025- o'quv yili boshiga*

*I.* Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari
*II.* Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar
*III.* Oliy ta'lim tashkilotlaridatahsil olayotgan talabalar
*IV.* Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
*V.* Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)
*VI.* Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlarva metama'lumotlar

## I. Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari

Toshkent viloyatida 2024/2025- o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni **16 tani** tashkil etgan va 2020/2021- o'quv yili boshiga nisbatan **8 taga**, ya'ni **100,0 % ga** oshgan.

Faoliyat yurita yotgan oliy ta'lim tashkilotlari soni
*(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)*




Faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari soni
*(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)*



2024/2025- oʻquv yili boshiga viloyatda jami **6 ta** nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2022/2023- oʻquv yiliga nisbatan ularning soni **3 barobarga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari soninihududlar kesimida taqsimlanishi
*(2024/2025- o'quv yili boshiga, birlik)*

| | Oliy ta'lim tashkilotlari soni, jami | shundan: nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari |
|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **16** | **6** |
| *shaharlar:* | | |
| Nurafshon | 1 | 1 |
| Olmaliq | 3 | 2 |
| Angren | 1 | - |
| Bekobod | - | - |
| Ohangaron | - | - |
| Chirchiq | 5 | 2 |
| Yangiyoʻl | - | - |
| *tumanlar:* | | |
| Oqqoʻrgʻon | - | - |
| Ohangaron | - | - |
| Bekobod | - | - |
| Boʻstonliq | - | - |
| Boʻka | - | - |
| Quyi Chirchiq | - | - |
| Zangiota | - | - |
| Yuqori Chirchiq | - | - |
| Qibray | 5 | 1 |
| Parkent | - | - |
| Piskent | - | - |
| Oʻrta Chirchiq | - | - |
| Chinoz | - | - |
| Yangiyoʻl | - | - |
| Toshkent | 1 | - |

2024/2025- oʻquv yili boshida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining eng koʻp qismi Chirchiq shahar va Qibray tumani (har birida **5 tadan**) va Olmaliq shaharda (**3 ta**) qayd etilgan, nisbatan past koʻrsatkichlar esa Nurafshon, Angren shaharlar hamda Toshkent tumanida (har birida **1 tadan**) kuzatilgan.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari asosan Olmaliq va Chirchiq (**2 ta**) shaharlarda joylashgan, nisbatan past koʻrsatkichlar Nurafshon shahar va Qibray tumanida (**1 ta**) qayd etilgan. Qolgan hududlarda esa ushbu toifadagi tashkilot mavjud emas.

## II. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar

Toshkent viloyatida 2024/2025- o'quv yilida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar sonini o'sishi kuzatilgan. Ularning umumiy soni **22,7 ming nafarni** tashkil etgan va 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan **13,0 ming nafarga**, ya'ni **2,3 barobarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni

*(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)*




Yuqorida qayd etilgan davr davomida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan qizlar soni **7,4 ming nafarga**, ya'ni **3,0 barobarga**, o'g'il bolalar soni esa **5,6 ming nafarga**, ya'ni **1,9 barobarga** oshgan.

Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

*(2024/2025- o'quv yili boshiga, kishi)*

| | Jami qabul qilingan talabalar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | qabul qilingan talabalar sonidan: | | jami talabalar sonidan: | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | qiz bolalar | o'g'il bolalar | bakalavriatga qabul | magistraturaga qabul |
| **Toshkent viloyati** | **22692** | **100,0** | **11137** | **11555** | **21930** | **762** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Nurafshon | - | - | - | - | - | - |
| Olmaliq | 1688 | 7,4 | 584 | 1104 | 1651 | 37 |
| Angren | 1181 | 5,2 | 795 | 386 | 1135 | 46 |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Chirchiq | 7695 | 33,9 | 4630 | 3065 | 7371 | 324 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Yangiyo'l | - | - | - | - | - | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Bo'stonliq | - | - | - | - | - | - |
| Bo'ka | - | - | - | - | - | - |
| Quyi Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Zangiota | - | - | - | - | - | - |
| Yuqori Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Qibray | 12073 | 53,2 | 5104 | 6969 | 11757 | 316 |
| Parkent | - | - | - | - | - | - |
| Piskent | - | - | - | - | - | - |
| O'rta Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Chinoz | - | - | - | - | - | - |
| Yangiyo'l | - | - | - | - | - | - |
| Toshkent | 55 | 0,3 | 24 | 31 | 16 | 39 |

2024/2025- o'quv yili boshida, oliy ta'lim tashkilotlariga eng ko'p qabul qilingan talabalar soni Qibray tumanida (**12,1 ming**) va Chirchiq shahrida (**7,7 ming**) kuzatilgan, eng kam talabalar soni esa Toshkent tumanida (**0,1 ming**) qabul qilinganligi qayd etilgan.

Kuzatilayotgan davr davomida oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, ularning umumiy sonidan o'g'il bolalar ulushi **50,9 % ni**, qiz bolalar ulushi esa **49,1 % ni** tashkil etgan. O'z o'rnida, Olmaliq shahrida (o'g'il bolalar ulushi ushbu hududdagi umumiy qabulning **65,4 % ini** tashkil etgan), Qibray (**57,7 %**) va Toshkent (**56,4 %**) tumanlarida qabul qilingan o'g'il bolalar ulushi qiz bolalarga nisbatan yuqori bo'lgan. Chirchiq (**39,8 %** va Angren shaharlarida (**32,7 %**) esa aksincha, qabul qilingan o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

## III. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar

Toshkent viloyatida 2020/2021- o'quv yilidan 2024/2025- o'quv yiligacha bo'lgan davr mobaynida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni ortib borayotganligi kuzatilgan. Ushbu davr ichida talabalarning umumiy soni **104,3 ming kishiga**, ya'ni **3,7 barobarga** ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni

*(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)*



Yuqorida ko'rsatilgan davrda oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan qiz bolalar soni **41,9 ming kishiga**, ya'ni **6,0 barobarga**, o'g'il bolalar soni esa **34,0 ming kishiga**, ya'ni **2,7 barobarga** oshgan. 2024/2025- o'quv yili boshida talabalarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **48,2 % ni**, o'g'il bolalar ulushi esa **51,8 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

*(2024/2025- o'quv yili boshiga, kishi)*

| | Jami talabalar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | tahsil olayotgan talabalar sonidan: | | jami talabalar sonidan: | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | qiz bolalar | o'g'il bolalar | bakalavriatda o'qiyotganlar | magistraturada o'qiyotganlar |
| **Toshkent viloyati** | **104280** | **100,0** | **50340** | **53940** | **103200** | **1080** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Nurafshon | 590 | 0,6 | 100 | 490 | 589 | 1 |
| Olmaliq | 8451 | 8,1 | 2737 | 5714 | 8402 | 49 |
| Angren | 4932 | 4,7 | 3675 | 1257 | 4886 | 46 |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Chirchiq | 42098 | 40,4 | 23703 | 18395 | 41492 | 606 |
| Yangiyo'l | - | - | - | - | - | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oqqo'rg'on | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Bo'stonliq | - | - | - | - | - | - |
| Bo'ka | - | - | - | - | - | - |
| Quyi Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Zangiota | - | - | - | - | - | - |
| Yuqori Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Qibray | 48154 | 46,1 | 20101 | 28053 | 47815 | 339 |
| Parkent | - | - | - | - | - | - |
| Piskent | - | - | - | - | - | - |
| O'rta Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Chinoz | - | - | - | - | - | - |
| Yangiyo'l | - | - | - | - | - | - |
| Toshkent | 55 | 0,1 | 24 | 31 | 16 | 39 |

2024/2025- o'quv yili boshida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning eng katta qismi Qibray tumani (**48,2 ming**) va Chirchiq shahrida (**42,1 ming**) qayd etilgan, nisbatan kam ko'rsatkich esa Olmaliq (**8,4 ming**) va Angren (**4,9 ming**) shaharlarida kuzatilgan.

## IV. Oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

2024- yilda Toshkent viloyati oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni **211,2 ming kishini** tashkil etgan va 2020- yilga nisbatan ularning soni **8,9 ming kishiga**, ya'ni

**3,9 barobarga** oshgan. Bitiruvchilarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi **44,2 % ni**, o‘g‘il bolalar ulushi esa **55,8 % ni** tashkil etgan.

Oliy ta’lim tashkilotlarining bitiruvchilari soni

*(tegishli yili uchun, ming kishi)*




Yuqorida qayd etilgan davr mobaynida oliy ta’lim tashkilotlarini bitirgan qiz bolalar soni **3,9 mingtaga**, ya’ni **3,8 barobarga**, o‘g‘il bolalar soni esa **5,0 mingtaga**, ya’ni **3,9 barobarga** oshgan.

Oliy ta’lim tashkilotlarining bitiruvchilari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

*(2024-yil uchun, kishi)*

| | Jami bitiruvchilar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | bitiruvchilar sonidan: | | jami talabalar sonidan: | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | qiz bolalar | o‘g‘il bolalar | bakalavriat bitiruv-chilari | magistratura bitiruvchilari |
| **Toshkent viloyati** | **12014** | **100,0** | **5276** | **6738** | **11885** | **129** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Nurafshon | 6 | 0,1 | 1 | 5 | - | 6 |
| Olmaliq | 1056 | 8,8 | 245 | 811 | 1055 | 1 |
| Angren | - | - | - | - | - | - |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Chirchiq | 8026 | 66,8 | 4275 | 3751 | 7961 | 65 |
| Yangiyo‘l | - | - | - | - | - | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oqqo‘rg‘on | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Bo‘stonliq | - | - | - | - | - | - |
| Bo‘ka | - | - | - | - | - | - |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Quyi Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Zangiota | - | - | - | - | - | - |
| Yuqori Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Qibray | 2926 | 24,3 | 755 | 2171 | 2869 | 57 |
| Parkent | - | - | - | - | - | - |
| Piskent | - | - | - | - | - | - |
| O'rta Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Chinoz | - | - | - | - | - | - |
| Yangiyo'l | - | - | - | - | - | - |
| Toshkent | - | | - | | - | - |

Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining eng ko'p qismi Chirchiq shahri (**8,0 ming**), Qibray tumanida (**2,9 ming**) qayd etilgan, nisbatan kam qismi esa Olmaliq shahriga (**1,1 ming**) to'g'ri kelgan.

Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan talabalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Qibray tumani (o'g'il bolalar ulushi ushbu hududdagi bitiruvchilarning umumiy sonidan **74,2 % ni** tashkil etgan), Nurafshon (**83,3 %**) va Olmaliq (**76,8 %**) shaharlarida bitiruvchilarning umumiy sonidan o'g'il bolalar ulushi qiz bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. Chirchiq shahrida (**46,7 %**) esa aksincha, o'g'il bolalar ulushi qiz bolalarga nisbatan kamroq bo'lgan.

## V. Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz)

2024/2025- o'quv yili boshida Toshkent viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan professor-o'qituvchi xodimlar soni (o'rindoshlarsiz) **2,5 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021- o'quv yili boshiga nisbatan **1,1 ming kishiga**, ya'ni **2,3 barobarga** oshgan. O'z o'rnida, ayol-o'qituvchilar soni **0,6 ming kishiga**, ya'ni **1,8 barobarga**, erkak-o'qituvchilar soni esa **0,5 ming kishiga**, ya'ni **1,6 barobarga** ko'paygan.

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchi xodimlari (o'rindoshlarsiz) soni

*(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)*



Yuqorida koʻrsatilgan davrda professor-oʻqituvchi xodimlarning (oʻrindoshlarsiz) umumiy sonidan ayollar ulushi **42,5 % ni**, erkaklar ulushi esa **57,5 %** ni tashkil etgan.

### Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-oʻqituvchi xodimlari (oʻrindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

*(2024/2025- oʻquv yili boshiga, kishi)*

| | Jami professor-oʻqituvchi xodimlar soni | jamiga nisbatan hududlarning ulushi, % da | ulardan: | | umumiy sonidan, % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | ayollar | erkaklar | ayollar | erkaklar |
| **Toshkent viloyati** | **2482** | **100,0** | **1054** | **1428** | **42,5** | **57,5** |
| *shaharlar:* | | | | | | |
| Nurafshon | 8 | 0,3 | 2 | 6 | 25,0 | 75,0 |
| Olmaliq | 238 | 9,6 | 70 | 168 | 29,4 | 70,6 |
| Angren | 107 | 4,3 | 49 | 58 | 45,8 | 54,2 |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Chirchiq | 1190 | 47,9 | 507 | 683 | 42,6 | 57,4 |
| Yangiyoʻl | - | - | - | - | - | - |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Oqqoʻrgʻon | - | - | - | - | - | - |
| Ohangaron | - | - | - | - | - | - |
| Bekobod | - | - | - | - | - | - |
| Boʻstonliq | - | - | - | - | - | - |
| Boʻka | - | - | - | - | - | - |
| Quyi Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Zangiota | - | - | - | - | - | - |
| Yuqori Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Qibray | 938 | 37,9 | 426 | 512 | 45,4 | 54,6 |
| Parkent | - | - | - | - | - | - |
| Piskent | - | - | - | - | - | - |
| Oʻrta Chirchiq | - | - | - | - | - | - |
| Chinoz | - | - | - | - | - | - |
| Yangiyoʻl | - | - | - | - | - | - |
| Toshkent | 1 | - | - | 1 | - | 100,0 |

Oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-oʻqituvchi xodimlar (oʻrindoshlarsiz) soni boʻyicha yuqori koʻrsatkich Chirchiq shahri (**1,2 ming**) va Qibray tumanida (**0,9 ming**) qayd etilgan, nisbatan kam koʻrsatkich esa Olmaliq (**0,2 ming**) va Angren (**0,1 ming**) shaharlarida kuzatilgan.

Oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-oʻqituvchi xodimlarning gender taqsimoti shuni koʻrsatadiki, Toshkent (ayollar ulushi ushbu hududdagi professor-oʻqituvchi xodimlarining umumiy sonidan **100,0 % ni** tashkil etgan), Qibray (**54,6 %**) tumanlarida va Chirchiq (**57,4 %**), Angren (**54,2 %**), Olmaliq (**70,6 %**), Nurafshon (**75,0 %**) erkak oʻqituvchilar ulushi yuqori boʻlgan.

## VI. Oliy ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlarva metama'lumotlar

Toshkent viloyatida **oliy ta'lim** uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

**Bakalavriat** oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

**Magistratura** tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Toshkent viloyatida oliy ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistika hisoboti – **1 oliy ta'lim shakli yillik** "Oliy ta'lim tashkilotining hisoboti" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur statistika hisobotini mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha oliy ta'lim tashkilotlaritomonidan taqdim etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining statistika hisoboti qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchi xodimlar soni, ta'lim shakllari va turlari, shuningdek, oliy ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi.Qabul qilingan va tahsil olayotgan talabalar, professor-o'qituvchi xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

**Foydali havolalar:**
*Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom*
*MSKO 2011*
*MSKO-0 2013*

**Tayyorlash uchun mas'ul:**
*Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*

**Manzil:***100198, Toshkent v., Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy*
**El. manzil:** *info@toshvilstat.uz*
**Tel.:** *71-203-45-00 (4600)*